

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANIDAN TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHGA ERGONOMIK YONDASHUV

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini monitoringini olib borish va
sifatini baholash bo'limi" boshlig'i N.X.Kirgizova*

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: texnologiya, to'garak, o'quvchi, o'qituvchi, ustoz, murabbiy.

ЭРГОНОМИЧНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ КРУЖКОВ ПО ПРЕДМЕТУ ТЕХНОЛОГИИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Киризова Н.К., начальник «Отдела мониторинга и оценки качества процесса переподготовки и повышения квалификации» национального центра обучения педагогов Наманганской области к новым методикам

Аннотация. В статье даны практические рекомендации по содержательному проведению свободного времени учащихся и молодежи в общеобразовательных школах, формированию и развитию творческих способностей.

Ключевые слова и понятия: технология, кружок, ученик, учитель, наставник, тренер.

ERGONOMIC APPROACH TO ORGANIZING CURS ON THE SUBJECT OF TECHNOLOGY IN A COMPREHENSIVE SCHOOL

Kirgizova N.K., Head of the "Department for monitoring and assessing the quality of the process of retraining and advanced training" of the national center for training teachers in Namangan region to new methods

Annotation. The article gives practical recommendations on the meaningful use of free time for students and young people in secondary schools, the formation and development of creative abilities.

Key words and concepts: technology, circle, student, teacher, mentor, coach.

Kirish. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qadam qo‘ygan ilk kundan boshlab, buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming-ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatiga asoslangan ma‘naviy merosini qayta tiklash, asl holatini saqlash uni kelajak avlodga yetkazish borasida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Inson shaxsi uning yuksak ma‘naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va e‘tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi¹. Mehnat tarbiyasi to‘g‘risida qomusiy mutaffakkirlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykavus, A.Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o‘z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug‘lab, yoshlarni mehnat qilishga, mehnatning inson faoliyatida o‘rni haqida fikr bildirishgan. Respublikamizda mehnat ta‘limi uning taraqqiyotga ko‘pgina olimlar A.Vorobyov, N.Shodiyev, E.Choriyev, N.Nishonaliyev, O.Ma‘zumov, R.Mavlonova, O.Magdiyev, K.Davlatov, U.Tolipovlarning darslik va metodik qo‘llanmalari chop etilgan. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida R.Mavlonova, X.Egamov, G.Perevertin, X.Sanaqulov, G.Shmulevich va boshqalarining darsliklari, qo‘llanmalari mavjud. Bu o‘rinda texnologiya fani yosh avlodni ma‘naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta ijtimoiy, badiiy estetik kasb etuvchi dolzarb ilmiy va amaliy muammo ekanligini ko‘rsatmoqda. Xuddi shu jihatlarni e‘tiborga olgan holda asosiy maqsad umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya fanidan to‘garaklarni tashkil etishning umumnazariy va amaliy masalalarini tavsiya etishdan iboratdir.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan maktabdan tashqari tashkil etiladigan to‘garaklarga nisbatan bee‘tibor bo‘lgan edik. Bugungi globallashuv, axborotlar almashinuv jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanimizning porloq kelajagi uchun

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T. “O‘zbekiston”, 1998.

har jihatdan bilimli aqlli, shu yurt koriga yaraydigan yoshlar tarbiyasida, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun albatta umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etishning yuqori bosqichga olib chiqish lozimligidir.

Tadqiqotning ob'ekti umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan texnologiya fanidan to'garaklardir.

Tadqiqotni yoritishda mavzuga oid ilmiy, uslubiy, metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatish ilg'or tajribalarni o'rganish, qiyoslash kabi usullardan foydalanildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarga keng jalb etish maqsadida texnologiya fani bo'yicha to'garaklarni o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda ushbu to'garaklardan foydalanish yaxshi natija beradi². Texnologiya fani turlari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan to'garaklarning "Mohir qo'llar", "Bichish-tikish", "To'quvchilik", "Duradgorlik", "Yosh pazanda", "Munchoqli bezak", "Kulolchilik", "Kandakorlik", "Robototexnika", "Yumshoq o'yinchoqlar", "Zargarlik" kabi turlari mavjud.

Texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni rivojlanish darajalarini yuqoriga ko'tarish uchun o'qituvchilar ergonomik yondashuv mohiyatini va uni maqsadli amalga oshirish metod va vositalarini bilishlari lozim. Bugungi kunda ergonomik yondashuvni ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish barcha fanlarni o'qitishda fan va amaliyot uchun birdan bir zaruriy masala sanalmoqda. Texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlarini ergonomik yondashuv asosida tashkil etish metodikasi bu o'quv faoliyatini boshqacha tamoyil asosida qurilishini va sifat jihatdan yangi bilimlar bilan boyitishni taqozo etadi. Bunday o'qitishning mohiyati shundaki, o'quvchining rivojlanishi o'qituvchini ham o'quvchini ham bosh vazifasiga aylanadigan sharoitni yaratishdan iborat. Xozirgi zamonaviy pedagogikada

² Jo'rayev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy o'rta ta'lim vazifalari. "Pedagogik mahorat", 2001, 2-son.

ergonomik yondashuv asosida o'qitish bo'yicha bir necha turdagi nazariy asoslangan va tajribada tekshirilgan ta'lim texnologiyalari mavjud³. Ergonomik yondashuv negizida dastlab kreativ texnologik fikrlashni takomillashtirish zarurati yotishini aniqlab, uni rivoji o'quvchilarni aqliy rivojlanishlarida va o'zlarining mustaqil ijodiy faoliyatlarida o'ta muhim rol o'ynashi asoslab ko'rsatilgan^{4,5}.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak rahbarining asosiy e'tibori quyidagilarga qaratiladi: texnologiya fanidan tashkil etiladigan to'garaklarga qiziqishi va qobiliyati bor o'quvchilarni qabul qiladi hamda har bir guruhda o'quvchilar soni 8-10 nafardan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi, har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyati bo'lmaydi, to'garakda bolalarning qiziqishi, idroki, malakalari, ijodiy qobiliyatlari o'rganilib va ma'lum vaqt mobaynida sinovdan o'tkazilib qabul qilinadi. Texnologiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari tashkil etiladigan to'garaklar akademik vaqt bilan 45 minutdan 90 minutgacha bo'lgan muddatda o'tkaziladi.

To'garaklarda texnologiya fanining mazmuni alohida e'tiborga loyiq. Ta'lim mazmunini to'g'ri belgilanishi to'garak ishini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o'rganib chiqishi va shu asosida o'zining hududiy sharoitlari, qay darajada ekanligiga qarab ta'lim mazmuniga oid rejasini ishlab chiqadi. To'garaklar qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar nazariy va amaliy qismlardan tashkil topishi lozim. To'garak rahbari ishtirokchilar bilan ularning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda mashg'ulotlarni olib borishi kerak. Hohish va istak past bo'lgan holatda rejadani ortiq shug'ullanish tavsiya etilmaydi, chunki bunday holatda bolalarning me'dasiga tegib qolish ehtimoli kuchli bo'ladi.

Shuning uchun mashg'ulotlarni me'yorida juda ham ko'p oshirmasdan olib borish lozim. Ta'lim muassasalarida texnologiya fanini o'qitish jarayonida

³ Abdullayev S.X. Texnologik ta'lim o'quvchilarining ergonomik kompetentligi // Monografiya. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.

⁴ Abdullayev S.X. O'quvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2021. 9-son. 5.28- 36.

⁵ Qo'chqorov X.O., Yusupov D.A. Fundamental fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari: Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Uzbekistan 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-448-455. p.448-455.

o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib borish, o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturi asosida olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida fan to'garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi mashg'ulotlarda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga o'rin berish barobarida texnologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarini o'tkazish, unda o'quvchilarning badiiy didlarini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, ko'rgazma, tanlov, san'at kechalarini o'tkazish, ulardagi badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratiladi.

To'garak mashg'ulotlarini olib borayotgan to'garak rahbarlari juda katta mas'uliyat bilan mashg'ulotlarni olib borishlari kerak, sababi to'garak a'zolari bilan ishlaydigan asosiy kuch to'garak rahbari hisoblanadi. To'garak rahbari har bir mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishi va to'garak mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etishi, to'garak mashg'ulotlarini interfaol usullardan foydalanib o'tkazishi lozim. To'garaklarda bolalar muntazam ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladilar. Reja asosida o'tkazib turiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar esa ularda mehr-muruvvat, insonparvarlik, Vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi.

To'garak mashg'ulotlarini asosiy maqsadi dastur va darsliklardan tashqari o'quvchilarni qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarining oshishiga hamda ularning fan sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirishga va kasb tanlashga yordam berishga qaratiladi.

Respublikamizning barcha sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar, axborot almashish vositalarining turli hillari ko'payganligi ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida jiddiy e'tibor berishni taqazo etadi. Ularni ma'naviy jihatdan sog'lom, baquvvat, bilimli qilib tarbiyalash⁶, ayniqsa ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va kasbga yo'naltirilgan holda maqsadli tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.; "O'zbekiston". 2017.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan tavsiya etilgan “Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta‘minlash”ga qaratilgan 5 ta tashabbusning birinchisi sifatida e‘tirof etilishi, joylarda o‘quvchi-yoshlarning san‘atga va ijodga bo‘lgan qiziqishi bo‘yicha ijodkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi o‘ta muhimdir.

Yoshlarimizni ma‘naviy yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda maktabning roli bilan fan to‘garaklarining faoliyati shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi, u o‘quvchi-yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi-yoshlarni badiiy to‘garaklar orqali hayotga qiziqishi, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivojlanishida, ayniqsa, hayotga bo‘lgan qiziqishlarini o‘tib borishida, atrof-muhit, jamiyat taraqqiyotida kuzatish qobiliyati va dunyoqarashining shakllanishida to‘garaklardan maqsadli foydalanish kerak. Maktabdan tashqari to‘garaklarda badiiy ijodkorlikni egallagan yoshlarda qalbida yovuzlik, vatanfurushlik, tajovuskorlik va boshqa insoniylikka hos bo‘lmagan hususiyatlardan yiroq bo‘lib, qalbida ong-shuurida bunyodkorlik, ijodkorlik, mehr-muhabbat, ona Vatanga sadoqat va millatga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Maktabda to‘garak ishlarini asosiy maqsadi yoshlarimizga tarbiya ko‘nikmalarini singdirish bilan birga o‘quvchilarni Vatan millatga muhabbatini, komil inson qilib hamda o‘quvchilarni ma‘naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, havaskorlik, to‘garak a‘zolarini ko‘rik tanlovlarga tayyorlash hozirgi kunda alohida o‘rin egallaydi. Milliy ta‘lim va tarbiya o‘z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, ahloqiy va umuminsoniy fazilatlarini mujassam etish bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida darsdan tashqari tashkil etiladigan texnologiya fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda nimalarga e‘tibor berish kerak, ta‘limiy va tarbiyaviy faoliyatini qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi? Albatta bu yo‘nalishda tajribalar va ilmiy izlanishlar yetarli.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi ma'lum mezon va talablarga ko'ra tanlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

a) texnologiya fanidan tashkil etiladigan to'garaklarda ishtirok etadigan o'quvchi-yoshlarning qiziqishlari bo'yicha iqtidorini aniqlash va shu asosda yo'nalishni tanlash va har bir ishtirokchini qiziqishi, mashg'ulotlarni o'zlashtirishini hisobga olish;

b) tanlagan yo'nalishlari bo'yicha qiziqishlari qobiliyatlari to'g'ri kelishini inobatga olish;

v) o'quvchilarning dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada madaniyatini milliy tusda shakllantirish nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi;

g) o'quvchilarda o'qishga mehnatga ijodkorlikka, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi;

d) ijod namunalarini hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan umum xalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy va ommaviy mavzularga mosligi;

e) ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini (savodxonlik, ijodkorlik) o'zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta'sir ko'rsatish hususiyatiga egaligiga e'tiborni qaratish shart bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari tashkil etiladigan texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda eng qulay vositalarni izlab topish innovatsiyalar kiritishni taqazo etadi. To'garaklarni tashkil etishda asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratilishi lozim. Bu yillar davomida to'plagan ijobiy tajribalardan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalombor, o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutaffakirlarining dono fikr-mulohazalaridan, shuningdek jahon umuminsoniy qadriyatlaridan keng foydalanish lozim. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda tizimli va majmualiy tadbiq etishga ko'ra uch vazifa birligi - "ilmiy,

rivojlanib borish”, “pedagogik va psixologik jarayonlar mushtarakligi, ta’lim jarayonida jamiyat talablarini e’tiborga olish”, “yangicha bilimlarga amal qilish” kabi bir qator qoidalar asosida tarkib topishi kerak⁷. Ular asosida o’quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo’nalish belgilanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun o’quvchilar bilan to’garak, san’atning ayrim turlari, jahon va milliy madaniyatni o’rganish va boshqa tarbiya shakllaridan foydalanish mumkin. To’garaklar asosida berilayotgan tarbiyaning asosiy mazmuni istalgan sohadagi darsdan va maktabdan tashqari to’garak mashg’ulotlari tarbiyasining yagona qoida va uslublarini tashkil etadi. Inson shaxsining shakllanishi nihoyatda tinimsiz va murakkab jarayon bo’lib, unda ko’plab omillarning ta’siri bor, ularning ayrimlari tarqoq, ayrimlari maqsadga yo’naltirilgandir.

Hulosa sifatida aytish joizki, umumiy o’rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan to’garaklar o’quvchi-yoshlarda bir qator ijobiy fazilatlarni shakllantirish barobarida, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishlari hamda foydali mehnat faoliyati bilan shug’ullanishlariga xizmat qilib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu o’rinda umumiy o’rta ta’lim maktablarida sinfdan tashqari texnologiya fanidan tashkil etiladigan to’garaklar faoliyatini yo’lga qo’yishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- umumiy o’rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan to’garaklar faoliyatini yo’lga qo’yish bilan bog’liq tashkiliy ishlar bajarilishini ta’minlash;

- to’garak ishtirokchilarini ro’yxati, o’tkaziladigan kunlarni jadvalini shakllantirish;

- to’garaklarning o’quv-me’yoriy hamda moddiy texnik ta’minotini yaratish;

- to’garaklarni har jihatdan yuqori saviyada tashkil etish bo’yicha to’garak rahbari muntazam o’z ustida ishlashi va yangidan-yangi izlanishlar olib borishi;

- to’garak ishtirokchilarini turli tadbirlar, tanlovlar, festival va ommaviy ahborot vositalarida chiqishlarini ta’minlash.

Adabiyotlar ro’yxati

⁷ Imomnazarov M.S., Eshmuhamedov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. (oliy o’quv yurtlari uchun ma’ruza matnlari) - T.: ToshIU, 2001.-432-b.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2013.
3. Abdullayev S.X. Texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining ergonomik kompetentligi // Monografiya. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.
4. Abdullayev S.X. O‘qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta‘lim. Toshkent, 2021. 9-son. B.28- 36.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: “O‘qituvchi”, 1992.
6. Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. –T.: “O‘qituvchi”, 1995.-86-bet.
7. Jo‘rayev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy o‘rta ta‘lim vazifalari. “Pedagogik mahorat”, 2001.02-son.
8. Imomnazarov M.S., Eshmuhamedov M. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. (oliy o‘quv yurtlari uchun ma‘ruza matnlari) –T.; ToshIU, 2001.
9. Qo‘chqorov X.O., Yusupov D.A. Fundamental fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari: Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Uzbekistan 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-448-455. p.448-455.